

ONA TILI TA'LIMIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ANALITIK-SINTETIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TAVSIFIY XUSUSIYATI

Boxodirova Muxlisa

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos tavsifiy jihatlari, konseptual asoslanishi, o'qish, o'qish kompetensiyasi, matn, badiiy matnni o'qish hamda ulardagi qobiliyatlarni oshirish bo'yicha olimlarining fikrlari tahliliy o'rganilib, subyektiv munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar ona tili ta'limi, boshlang'ich sinf o'quvchilari, analitik-sintetik faoliyati, o'qish, o'qish ko'nikmasi, o'qish kompetensiyasi, tahliliy ,tanqidiy yondashuvlar, matn va axborotlar bilan ishlash.

Ona tili ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishning tavsifiy xususiyati mazmunida til birliklaridan foydalanishning pragmatik vazifasi, mazkur faoliyat rivoji uchun tanlab olinadigan kontekstlar va kichik badiiy matnlar ustida ishlash asosiy o'rin egallaydi. A. Filippini va bir qator olimlar o'qishning o'ziga xos quyidagi jihatlarni alohida ta'kidlaydilar. Bular: erta savodxonlikka erishishning fonematik jihati, talaffuzdagi ravonlik, so'z boyligi va ma'noni tushunish, muloqot qilish uchun bilish jihati.¹ Boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishdagi muhim funktsionallik bu ma'noli va mazmunda muloqot qilishga mukammal tayyorgarlik ko'rish ahamiyatli. O'qish negizida o'quvchida shaxsiy qobiliyat, nutq madaniyati elementlari va insoniy fazilatlar rivoj topadi. N.V. Bagramova va A.V. Solomin o'quv materialini tanlash va tashkil qilishni o'quv materialining mazmuni va mashg'ulotning maqsad vazifalari va o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlari va ta'lim bosqichi bilan belgilanishi kerak, degan xulosadan kelib chiqib taklif qiladi. Ta'lim jarayonining mazmuni, tashkil etilishi, mualliflarning fikriga ko'ra, tilni o'zlashtirish usullarini ham, undan foydalanish shartlarini ham hisobga olish kerak. Shu ma'noda, bir qator boshqa yo'nalishlar bilan (funktsional, vaziyatli va boshqalar) o'quv materialini tashkil etishda tematik prinsip birlashtirilishi kerak². "Endilikda o'quvchilardan ravon o'qish va asosiy tushunish ko'nikmasi orqali tushungan yoki idrok etganlarini yangi vaziyatlar yoki loyihalarga nisbatan qo'llay olish qobiliyatini namoyon etishga o'tishni talab etilmoqda"³[177]. Xususan, o'quvchilar ravon o'qishi orqali muayyan tushunchalarga

¹ Filippini, A. L., Gerber, M. M., & Leafstedt, J. M. (2012). A vocabulary-added reading intervention for English learners at-risk of reading difficulties. *International Journal of Special Education*, 27(3), 14-26.

² Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2006. - 176 b

³ O'zbek tilining izohli lug'ati // 5 jildli. To'rtinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. Tahrir hay'ati: E.Begmatov va

ega bo'ladilar va fikrlashiga bu jarayon ta'sir ko'rsatadi. Ular tomonidan idrok qilingan ma'lumotlar amaliyotda sekin-astalik bilan o'z tasdig'ini topa boshlaydi, munosabat bildirish qobiliyati o'sib boradi.

Shu bilan birga, ona tili ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik-sintetik faoliyatini rivojlantirishda matn bilan ishlashga e'tibor qaratish ijobiy samara beradi.

“Matnning lisoniy tahlili funksional kategoriyalarga ham ega. Tilning funksional kategoriyalari matnning quyi kategoriyalarini ifodalovchisi sifatida xizmat qiladi: 1) xronotop kategoriyasi temporal va lokativ bog'liqlik natijasida hosil bo'ladi; 2) koordinat kategoriyasi lokal, personal, temporal kategoriyalar hamkorligida yuzaha keladi; 3) deysis kategoriyasi temporal, lokal, personal va referent kategoriyalarining bevosita bog'liqligini ta'minlovchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi; 4) nuqtai nazar kategoriyasi temporal, lokal, shaxs, referent, modallik kabi funksional kategoriyalarining aloqadorligini namoyish etuvchi kategoriya sifatida baholanadi”⁴.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik- sintetik faoliyatini rivojlantirishda o'qish ko'nikmasining rivojida, so'zlar semantikasi bilan ishlashda ularning leksikografik bilimlarini, lug'at boyligini oshirish ko'nikmalarini o'stirish talab qilinadi. Shu bois o'qish savodxonligi darsliklarida axborot, idrokni va tafakkurni dinamik potentsialligini belgilovchi ilmiy, badiiy, hikoya, muhokama matnlarining berilishi analitik- sintetik faoliyatni rivojlantirilishini tezlashtiradi. O'quv materiallari, grafikli tasvirlar bilan tafakkur qilish dinamikligini fanlararo strukturaviy integratsiyalash boshlang'ich sinf o'quvchisining analitik-sintetik faoliyatidagi quyidagi nutqiy ko'nikma va malakalarni oshiradi:

- 1) o'quv materialini o'rganish natijasida ularda tafakkur boyib boradi;
- 2) ona tili savodxonligi, o'qish savodxonligi, matematika va tarbiya, tasviriy san'at, axborot texnologiyalari fanlarining o'zaro strukturaviy integratsiyasi ulardagi qobiliyatlarini o'stirib, fikrlash mahsulini kengaytiradi;
- 3) o'quvchilardagi kognitivlik, intensivlik, intellektuallik va qiziquvchanlik oshib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish savodxonligi mazmunini takomillashtirishda o'quvchilarning nutqiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunisi ahamiyatliki, mazkur malakalarning mutanosiblikda rivojlantirib borilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma monologik nutqini, informativ, aksiologik bilimlarini amaliy ifodalashini mustahkamlaydi.

boshq. – T.: “O'ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 606 b

⁴Зеская Ю. Н., Качесова И. Ю., Комиссарова Л. М., Панченко Н. В., Чувакин А. А. Теория текста. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука; 2010. – 68-69-с.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2006.- 176 b
2. Filippini, A. L., Gerber, M. M., & Leafstedt, J. M. (2012). A vocabulary-added reading intervention for English learners at-risk of reading difficulties. *International Journal of Special Education*, 27(3), 14-26.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati // 5 jildli. To'rtinchi jild. A. Madvaliev tahriri ostida. Tahrir hay'ati: E. Begmatov va boshq. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 606 b
4. Зеская Ю. Н., Качесова И. Ю., Комиссарова Л. М., Панченко Н. В., Чувакин А. А. Теория текста. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука; 2010. – 68-69-с.